

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” ASARIDAGI HIKOYALAR TAHLILI

Sharapova Mavluda Hokimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili 2-bosqich talabasi

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayrati”) Navoiyning “Xamsa”sining birinchi dostoni bo‘lib, 40 bobdan tashkil topgan. Har bir bobda muayyan axloqiy-ijtimoiy muammo qo‘yiladi va uni yorituvchi hikoya, rivoyat yoki masal keltiriladi. Asar mohiyatan yoshlarga yo‘lnoma bo‘lib, hayot yo‘lida adashmaslik, turli muammolarni to‘g‘ri hal qilish, ezgulik va haqiqatni anglash uchun zarur bo‘lgan ma’naviy kompas vazifasini o‘taydi. Mazkur maqolada “Hayrat ul-abror” asaridagi tanlangan hikoyalar badiiy, didaktik va g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil davomida hikoyalarning tarkibiy tuzilishi, ularda qo‘llangan badiiy vositalar, shuningdek, ularning tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi – Navoiy hikoyanavislik mahoratini va uning asarining bugungi yoshlar tarbiyasidagi dolzarbligini ko‘rsatishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Hayrat ul-abror, didaktik doston, tasavvuf, komil inson, iymon, axloqiy fazilatlar, ilohiy muhabbat, zohir va botin, Ibrohim Adham, Robiya Basriy, riyozat, ixlos, pandnoma, ma’naviy kamolot, tarbiya.

Annotation. “Hayrat ul-abror” is the first poem in Xamsa and consists of 40 chapters. Each chapter addresses a specific moral or social issue, illustrated through stories, parables, and allegories. Essentially, the work serves as a spiritual guide for young people, helping them navigate life correctly and make wise decisions. This article analyzes selected stories from “Hayrat ul-abror” from artistic, didactic, and ideological perspectives. Special attention is given to their structural composition, literary devices, as well as their educational and socio-philosophical significance. The main objective of the article is to reveal Navoi’s mastery as a storyteller and to demonstrate the relevance of his work in the upbringing of modern youth.

Keywords: Alisher Navoiy, Hayrat ul-abror, didactic poem, Sufism, perfect human (insan al-kamil), faith, moral values, divine love, outward and inward (zahir and batin), Ibrohim Adham, Robiya Basriy, asceticism, sincerity, moral education, spiritual development.

Asosiy qism. Ajdodlarimizdan bizga qolgan eng buyuk ma’naviy meros – bu ular yaratgan ilmiy va badiiy asarlar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodida saqlanib qolgan hikmatli so‘zlardir. O‘rta asrlar turkiy adabiy tafakkuri tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki manbalar qatorida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari (XI asr), Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” (XII asr), Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (XI asr) kabi buyuk bitiklarni ko‘rsatish mumkin. Keyingi davrlarda esa bu an’ana Alisher

Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Hayrat ul-abror” va Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahloq” asarlarida o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgan.

Ushbu asarlar nafaqat o‘z davrining badiiy va falsafiy tafakkurini aks ettiradi, balki yosh avlodni tarbiyalash, ularda axloqiy fazilatlar, ilmiy dunyoqarash va insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari pandnoma janridagi didaktik doston bo‘lib, unda har bir insonda bo‘lishi zarur bo‘lgan go‘zal xulq-atvor, adolat va to‘g‘rilik, ilm-ma‘rifat, xalqparvarlik, kamtarlik, saxovat va sabr-toqat kabi fazilatlar hikoyalar orqali badiiy va ta’sirchan tarzda yoritilgan.

"Hayrat ul-abror"(Yaxshi kishilarning hayratlanishi) buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi birinchi dostoni bo‘lib, insonni ma’naviy kamolotga yetaklashdan iborat.“Hayrat ul-abror”ning bosh g‘oyasi — insonni komillikka yetkazish, uni adolatli, bilimli va axloqan pok qilib tarbiyalashdir. Har bir inson halol ,sahiy,kamtar bo‘lishi nafsini tiya olishi bu dunyoning o‘tkinchiligini va oxirida Haqning huzuriga borishini anglab yetishi kerak. Navoiy bu asari orqali jamiyatni ham, shaxsni ham yaxshilik sari chorlaydi."Hayrat ul-abror"insonni komillik cho‘qqisiga olib chiquvchi yo‘riqnoma desak ham adashmagan bo‘lamiz. Bu yo‘lda avvalo shox sulton amirlar va har qandey davlat boshliqlari adolatli rostgo‘y xalqsevar bo‘lishi darkor. Podshohi adolatli bo‘lgan yurtlardan shoirlar ilm-ma'rifat ulamolari ahli ilmlar ko‘plab yetishib chiqadi va bu yerda nazarda tutilayotgan inson va uning kamoloti ulug‘lanadi va ko‘kka qarab parvoz qiladi. Adolatli bo‘lish uchun avvalo inson iymonli bo‘lishi Haq ni tanishi zarur. Asarning birinchi maqolati aynan iymon haqidadir.

“Kimki bu jahonga inson bo‘lib kelgan ekan, uning asosiy nishoni - belgisi imondir. Demak, sabr, shukr va hayodan iborat bolgan odamlargina inson degan sharafli nomga munosibdir, imondan uzoq bo‘lgan kishilarni esa bu nom bilan atab bo‘lmaydi”¹. Demak inson imonli bo‘lsa ollohni taniydi dinini anglaydi o‘zgalarni haqqini biladi eng asosiysi inson o‘zligini nima uchun yaratilganligini anglab yetadi.

Iymon 6 qismdan iboratdir:

1. Allohning borligiga imon keltirish.
2. Allohning farishtalarining borligiga imon keltirish.
3. Osmondan tushirilgan kitoblar borligiga imon keltirish.
4. Allohning payg‘ambarlariga imon keltirish.
5. Qiyomat -qayyumning bo‘lishiga imon keltirish.
6. O‘limning haqligiga imon keltirish.

Keltirilgan iymonning shartlaridan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak inson avvalo Allohning borligini tili va dili bilan tasdiqlashi kerak barcha narsalarning egasi va yaratuvchisi Allohdir boqiylik esa faqat unga xosdir. Farishtalar ya’ni pok mavjudotlar bo‘lib ular har qanday nafs va chirkinliklardan pokdir. Ilohiy kitoblar(Tavrot Injil, Zabur, Qur'on)esa hikmatlar daryosi ya'ni manbaidir. Bulardan Qur'oni Karimni alohida haqiqat manbai sifatida ulug‘laydilar. Haqiqat yo‘lboshchilari insoniyatga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib ularni Allohning jannatlari sari

¹ Alisher Navoiy “hayrat-ul abror” Yangi asr avlodi 2009-yil.



yetaklaydilar. Qiyomatning bo'lishi insonlar barcha tirik jonzotlar u kunda qilgan amallari uchun javob beradilar va kimlar uchun azob eshiklari yana kimlar uchun jannat eshiklari ochiladi. Qazoi qadar bu hamma uchun qismatdir barchasi Allohning ilmi bilan oldindan ma'lum. Iymonning aytilgan barcha asosiy shartlarini Navoiy go'zal va hammaga tushunarli tarzda badiiy usulda hikoyalar orqali ifodalab bergan. Agar inson iymonidan ayrilmasa tog'ri e'tiqodga chorlaydi va Allohning raxmati va mag'firatiga erishadi.

"Hayrat ul-abror"ning ikkinchi maqolatidagi Ibrohim Adham haqidagi hikoya. Ibrohim Adham shahzodalikni tark etgach, iloh uning boshiga fano tojini qo'ydi. U o'z mamlakatu saltanatini fano yeliga berdi-yu, sahro tomon joynamoz bilan yo'lga tushdi va har qadamda ikki rakat namozga bosh qo'yib, o'zi yoqtirgan Makkani madh etib, o'n to'rt yil yo'l bosdi. Makkaga yetib kelgach, uni o'z o'rnida ko'rmay hayron bo'ldi-da: "Yo Iloh, bu qanaqasi bo'ldi?" deb fig'on chekdi. Masjid ichidan ovoz eshitildi: "Bir ojiza shu sahroda yayov yurib kelayotib, shavq- muhabbat yukidan bukchayib notavon bo'lib qolgan ekan, Ka'ba uni ziyorat qilish uchun ketdi". Bu voqeaga hayron qolgan Ibrohim Adham orqasiga qarasa, Robiyaning kelayotganini ko'ribdi. Dedikim: "Sening ziyorat makoning Arsh, osmonning yuqorisi bo'lsa, Ka'ba tomonga azm etib ko'rki, jahonni ne holatga qo'yibsan?" deb so'radi. Robiya dediki: "Dag'allik qilma. Sahroda o'n to'rt yil yo'l yurib, sening o'zing olamga g'avg'o solibsan". Ibrohim dedi: "Ey pokiza, balki farishtalar ahlidek falakda kezuvchi ayol, nega men ming ranj chekib, ganj senga tegyapti?" Robiya unga: "Ogoh bo'l, necha yil sen sahroda namoz o'qish bilan band bo'lgan esang, men yolborish, o'tinish, umid bilan o'tkazdim.Sen namoz-u riyo mevasidan bahramand bo'lgan esang, biznig niyozu fano umidimizga yetkazdi."²

Bu hikoyada Ibrohim Adham va Robiya Basriy haqida tasavvufiy rivoyat orqali insonni ollohga chin ishq hikoya qilinadi. Ibrohim Adham ham mol-u dunyo, toj-taxt, dunyo lazatlaridan voz kechib foniy yo'lni tanlaydi.makkaga 14 yil deganda boradi-yu biroq kabani topa olmaydi.So'ng allohga fig'on qiladi. Masjidning ichidan bir ovoz eshilib kaba bir ojiza ayolning oldiga uni ziyorat qilish uchun ketdi deydi. Bu hikoyadan shuni xulosa qilib aytak,Allohga bo'lgan zohiriy va botiniy muhabbat aks etgan.Zohiriy muhabbat deganda tashqi ya'ni namoz o'qish ibodat qilish ro'za tutish va boshqa amallar tushuniladi. Botiniy muhabbatda ixlos, ichki kechinmalar, xasratlar ,chin qalbdan ibodat qilish kabi tuyg'ular ifodalanadi.Demak Ibrohim Adhamda ham zohiriy muhabbat bo'lib u faqat namoz o'qish orqali Allohga yetishmoqchi bo'lgan.Ibrohim Adham mehnat qilib kabaga boradi va uyerda kabani ko'rmaydi.Robiya Basriy esa Haqqa chin muhabbat ,tavba,xasrat qiladi Allohning ishq bilan borganligi uchun kaba uni ziyorat qilgani keladi.

Xulosa qilib aytganda, hikoyaning didaktik ahamiyati komillikka qarab intilayotgan yosh avlod va o'zini va o'zligini endi angelayotgan shaxslar uchun iymonli bo'lish, riyodan saqlanish, ixlosli bo'lish, qalb pokligini saqlash, Allohga muhabbat bilan yashash nazarda tutiladi. Tasavvufiy falsafada insonning haqiqiy kamoloti ,qalb pokligi Haqqa bo'lgan ishq tasvirlanadi.Alisher Navoiy Ibrohim Adham va Robiya Basriy obrazi orqali insonni tashqi

² Alisher Navoiy "hayrat-ul abror" Yangi asr avlodi 2009-yil.



ibodatdan ko‘ra ichki ruhiy yetuklikka chaqiradi. Unda inson kamoloti yo‘lida tashqi ibodatdan ko‘ra ichki ruhiy poklik va ilohiy muhabbatning ustunligi ta’kidlanadi. Hikoya orqali Navoiy o‘quvchini zohiriy amallar bilan cheklanib qolmasdan, qalbni poklash va chin muhabbat sari intilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy “hayrat-ul abror” Yangi asr avlodi 2009-yil.